

«TASDIQLANGAN»
“Kvarts” aksiyadorlik jamiyati
aksiyadorlarining 2026 yil 27-fevraldagi
Umumiy yig‘ilishi qarori bilan
(2026 yil 27-fevraldagi 1-sonli bayonnoma)

**“Kvarts” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi**

**NIZOM
(yangi tahrir)**

Quvasoy shahri - 2026 y.

Mundarija

- I. Umumiy qoidalar.
- II. Kuzatuv kengashining vakolat doirasi.
- III. Kuzatuv kengashini saylash.
- IV. Kuzatuv kengashining raisi.
- V. Kuzatuv kengashining majlislari va qarorlar qabul qilish tartibi.
- VI. Kuzatuv kengashi a'zolarining huquq va majburiyatlari.
- VII. Kuzatuv kengashi a'zolarining fidutsiar majburiyatlari.
- VIII. Kuzatuv kengashining qo'mitalari.
- IX. Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarligi.
- X. Kuzatuv kengashi tomonidan axborotni oshkor etish.
- XI. Yakuniy qoidalar.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining «Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (keyingi o‘rinlarda – Qonun), 2022 yil 29 martdagi “Korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-760-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2021 yil 29 martdagi 166-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2023 yil 24 martdagi PQ–101-son qarori, Korporativ boshqaruv Kodeksi (Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda 9-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan) tavsiyalari, boshqa qonun hujjatlari va “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati Ustavi (keyingi o‘rinlarda - Ustav) asosida ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom “Kvarts” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi, uning a‘zolarini saylash, shuningdek ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilovchi me‘yorlardan tarkib topgan.

3. Kuzatuv kengashi Jamiyatning boshqaruv organi hisoblanadi va Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, Qonun va Jamiyat Ustavi bilan Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno hamda Jamiyat Ustavida ko‘zda tutilgan maqsad va vazifalarning Jamiyat tomonidan amalga oshirilishini ta‘minlaydi.

4. Kuzatuv kengashi Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishiga hisobdordir.

5. Kuzatuv kengashi o‘z faoliyatida Qonunga, Korporativ boshqaruv kodeksiga, Jamiyat Ustaviga, ushbu Nizomga va Jamiyatning boshqa ichki hujjatlariga amal qiladi.

6. Aksiyalar narxining o‘shishiga olib keluvchi moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash, mehnat unumdorligi va mahsulot raqobatdoshligini oshirish, ishlab chiqarish, energiya samaradorligi va eksport ko‘rsatkichlarining o‘shishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirish Jamiyatning strategik maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar Jamiyat Kuzatuv kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) jamiyatning o‘rta muddatli va uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasining amalga oshirilishini ta‘minlash;

b) jamiyat ijroiya organi faoliyatini va Jamiyatning yillik (qisqa muddatli) biznes-rejalarining bajarilishini nazorat qilish;

v) jamiyatning axborot ochiqligini, Jamiyat to‘g‘risidagi ommaviy axborotning ishonchligi va xolisligini hamda Jamiyat axborot siyosatining amalga oshirilishini nazorat qilishni ta‘minlash;

g) korxonada ichki nazorat va xavflarni (risklarni) boshqarishning oqilona va samarali tizimi, shu jumladan korruptsiyaga va monopoliyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi faoliyati ustidan nazorat;

d) aksiyadorlarning dividend huquqlari va Jamiyatni kapitallashtirish o'rtasidagi uyg'unlikka rioya qilgan holda, Jamiyat dividend siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash;

e) manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish;

j) aksiyadorlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish.

Kuzatuv kengashi quyidagi tamoyillarga amal qilishi shart:

z) Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ishonchli axborot asosida qarorlar qabul qilish;

i) aksiyadorlarning turli guruhlarini manfaatlarining uyg'unligiga erishish va Kuzatuv kengashi tomonidan Jamiyatning barcha aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab, maksimal ob'ektiv qarorlar qabul qilish.

II. KUZATUV KENGASHINING VAKOLAT DOIRASI

2.1. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

Jamiyatning biznes-rejasi ko'rsatkichlari bajarilishi, shuningdek rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

aksiyadorlar umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun hamda umumiy yig'ilishga qatnashish huquqiga ega bo'lgan jamiyat aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki jamiyatning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash masalalarini Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

jamiyatning Boshqaruv a'zolarini saylash (tayinlash), ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

Boshqaruv raisi va a'zolariga to'lanadigan haq to'lashning yagona rag'batlantirish siyosati asosida oylik ish haqi va yil yakunlari bo'yicha bir yo'la to'lanadigan mukofot to'lovlari miqdorini belgilaydi.

Jamiyatning yillik biznes-rejasini joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

korporativ maslahatchini tayinlash va uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash;

ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish

uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;
auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno),
auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

qonunchilikda belgilangan hollarda Jamiyat tomonidan yirik bitimlar va jamiyat affillangan shaxslari bilan bitimlar tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish.

korporativ obligatsiyalar, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

jamiyatning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyatning ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish hamda Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq Jamiyat ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni hal qilish;

aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

qimmatli qog'ozlarning hosilalarini chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi qaror va emissiya risolasini tasdiqlash;

avval ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar chiqarilishlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish;

Jamiyat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish;

Jamiyat ijro organiga to'lanadigan haq va mukofot miqdorini belgilash, bunda biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilmagan yoki samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari "past" yoki "qoniqarsiz" deb baholangan taqdirda ijro organi tomonidan o'tgan hisobot yilida to'langan mukofotni to'liq Jamiyatga qaytarish masalasini ko'rib chiqish;

Jamiyat asosiy faoliyatiga xos bo'lgan yangi ko'chmas mulk ob'ektlarini sotib olish yoki qurish hamda xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalidagi ulushni sotib olish, shuningdek, asosiy faoliyatidan tashqari qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullanish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish;

Jamiyat tomonidan mulkni begonalashtirish, uni sotish shakli va mexanizmi, davlat ishtirokidagi korxonalar va ularning tarkibidagi korxonalar ustav kapitaliga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish bo'yicha kelishuvlarini (bitim, shartnoma, memorandum va boshqalar) majburiy tarzda oldindan ko'rib chiqish;

Jamiyatga uchinchi shaxslar tomonidan investitsiya kiritish yoki ularning xo'jalik jamiyatlari ustav kapitalida ishtirok etishi, yagona ta'sischi bo'lgan korxonalarni qayta tashkil etish bo'yicha kelishuvlarni hamda yirik ko'chmas mulk ob'ektlarini sotish masalalarini Davaktiv agentligi bilan kelishgan holda amalga oshirish;

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan va qonunchilikda o'rnatilgan miqdor doirasida hayriya (xomiylik) yoki beg'araz yordamni ko'rsatish (olish) shartlari va tartibini belgilash shuningdek ushbu to'g'risida qarorlar qabul qilish,

Jamiyatda korporativ boshqaruv tizimini baholashni tashkillashtirish, baholash huquqiga ega mustaqil tashkilotni tanlov asosida tanlash;

Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'lgan Strategiya va investitsiyalar, Audit, Tayinlovlar va mukofotlash, Korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalarini, shuningdek zaruriyatga ko'ra boshqa qo'mitalarni tashkil qilish;

Jamiyatni yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirish;

Jamiyatda transformatsiya jarayonlarini samarali tashkil etish, korxonaning tashqi qarzlarini optimallashtirish, zamonaviy xarid tizimini joriy etish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga muqobil mablag'larni jalb etish;

Kuzatuv kengashining tegishli masalalar bo'yicha qo'mitalar (ishchi guruhlar)ni tuzish;

jamiyatda ichki nazoratning ratsional va samarali tizimi, shu jumladan korruptsiyaga va monopoliyaga qarshi komplayens-nazorat tizimi faoliyati ustidan nazorat;

jamiyat, boshqaruv va nazorat organlari a'zolari, aksiyadorlar, jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari, mijozlar, kreditorlar, sheriklar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvlarini hal qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.

Kuzatuv kengashi vakolat doirasiga amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalar hal etish ham kiritilishi mumkin.

Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Jamiyat ijroiya organiga o'tkazilishi mumkin emas.

Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida hisobot beradi. Kuzatuv kengashi hisobotining shakli va mazmuniga oid talablar Jamiyatning ichki hujjati bilan belgilanadi.

III. KUZATUV KENGASHINI SAYLASH

3.1. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyat aksiyadorlari hisoblanadigan va aksiyadorlari hisoblanmaydigan faqat jismoniy shaxslar bo'lishi mumkin.

3.2. Jamiyat Ustaviga muvofiq Kuzatuv kengashining son tarkibi 9 (to'qqiz) kishini tashkil etadi.

3.3. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyatning moliya yili tugaganidan keyin 90 kundan kechiktirmay, Kuzatuv kengashiga bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga va o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay o'zgartirishlar kiritishga haqli.

3.4. Kuzatuv kengashi tarkibida Kuzatuv kengashi son tarkibining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan mustaqil a'zo bo'lishi zarur.

Quyidagi shaxslar Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi bo'lishi mumkin:

a) so‘nggi uch yil mobaynida jamiyatda va (yoki) uning affillangan shaxslarida ishlamagan shaxs;

b) jamiyatning aksiyadori va (yoki) uning affillangan shaxsining ta‘sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo‘lmagan shaxs;

v) jamiyatning va (yoki) uning affillangan shaxsining yirik mijoz va (yoki) yirik yetkazib beruvchisi bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlarda bo‘lmagan shaxs. Bunda qaysi mijoz va yetkazib beruvchi bilan eng kam ish haqining ikki ming baravaridan ko‘p bo‘lgan summaga teng amaldagi shartnoma mavjud bo‘lsa, o‘shalar yirik mijoz va yirik yetkazib beruvchi deb e‘tirof etiladi;

g) jamiyat va (yoki) uning affillangan shaxslari bilan biror-bir kelishuvga ega bo‘lmagan shaxs, bundan kuzatuv kengashi a‘zosining vazifalari va funksiyalari bajarilishini ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lgan hollar mustasno;

d) jamiyatning boshqaruv va ichki nazorat organlarining va (yoki) uning affillangan shaxslarining a‘zosi bo‘lgan shaxsning yoki so‘nggi uch yil ichida ularga a‘zo bo‘lgan shaxsning eri (xotini), ota-onasi (farzandlikka oluvchisi), farzandi (farzandlikka olingan bolasi), tug‘ishgan va o‘gay akasi (ukasi) hamda opasi (singlisi) bo‘lmagan shaxs;

e) davlat boshqaruvi organining yoki davlat korxonasining xodimi bo‘lmagan shaxs.

3.5. Jamiyat Kuzatuv kengashining a‘zolari qonunchilikda va Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan tartibda Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan **3 (uch) yil** muddatga saylanadi.

3.6. Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

3.7. Kuzatuv kengashi a‘zolariga quyidagi malaka talablari qo‘yiladi:

a) O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim muassasalarida yoxud qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasidagi ta‘limga tengligi e‘tirof etilgan xorijiy davlat ta‘lim muassasasida olingan oliy ma‘lumotga ega bo‘lish;

b) rahbarlik lavozimlarida yoki iqtisodiy yohud yuridik yo‘nalishda kamida ikki yillik ish tajribasi;

v) korporativ boshqaruv va qimmatli qog‘ozlar bozori sohasida qo‘shimcha ma‘lumot;

g) ustav kapitalida davlat ulushi bo‘lgan Jamiyatdagi davlat ulushini boshqarish bo‘yicha kiritilgan Kuzatuv kengashi a‘zoriga nomzodlarda Korporativ boshqaruv ilmiy-ta‘lim markazi tomonidan berilgan korporativ boshqaruvchi malaka attestatining mavjudligi, qonun hujjatlarida ko‘zda tutilgan hollar bundan mustasno.

3.8. Ayni shu Jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning Kuzatuv kengashi a‘zosi bo‘lishi mumkin emas.

3.9. Jamiyat Boshqaruvi raisi va a‘zolari Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

3.10. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a‘zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo‘lgan shaxslar soniga ko‘paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to‘liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o‘rtasida taqsimlashga haqli.

3.11. Eng ko‘p ovoz to‘plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

3.12. Kuzatuv kengashining a‘zosi uning tarkibidan chiqqan taqdirda, Kuzatuv kengashi boshqa a‘zolarining vakolatlari tugatilmaydi, Kuzatuv kengashi a‘zolarining soni Ustavda nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo‘lgan hollar bundan mustasno.

Kuzatuv kengashining a‘zolari – vafot etgan, ixtiyoriy ravishda o‘z vakolatlarini topshirgan, shuningdek boshqa sabablarga ko‘ra o‘z majburiyatlarini bajarish imkoniga ega bo‘lmagan taqdirda, uning tarkibidan chiqqan hisoblanadi.

Kuzatuv kengashining a‘zolari - Kuzatuv kengashining a‘zosining tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan vafot etgan kundan boshlab, Kuzatuv kengashi a‘zosining ixtiyoriy ravishda o‘z vakolatlarini topshirish to‘g‘risidagi arizasi Kuzatuv kengashi raisiga berilgan kunning ertasidan boshlab, yoxud Jamiyat tomonidan Kuzatuv kengashi a‘zosining o‘z vakolatlarini bajarish imkoniga ega emasligi to‘g‘risidagi hujjatlar olingan kundan boshlab, Kuzatuv kengashi tarkibidan chiqqan hisoblanadilar.

Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolarining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qaroriga ko‘ra Kuzatuv kengashining faqat barcha a‘zolariga nisbatan qo‘llanilishi mumkin.

IV. KUZATUV KENGASHINING RAISI

4.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a‘zolarining umumiy soniga nisbatan ko‘pchilik ovoz bilan, ushbu Kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a‘zolari tomonidan saylanadi, bunda Kuzatuv kengashining tarkibdan chiqqan a‘zolarining ovozi hisobga olinmaydi.

4.2. Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a‘zolari o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi va Kuzatuv kengashining yillik ish rejasini tasdiqlaydi.

Kuzatuv kengashining ish rejasi Kuzatuv kengashi raisining, Kuzatuv kengashi a‘zolarining, Boshqaruv raisining, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan zarur hollarda Jamiyat auditorining takliflariga muvofiq shakllantiriladi.

Kuzatuv kengashining ish rejasiga takliflar rejalashtirilayotgan (yarim yillik, yillik) davr boshlanishidan 30 taqvim kundan kechiktirmay kiritiladi.

Kuzatuv kengashining ish rejasiga taklif quyidagilarni o‘z ichiga olishi shart:

- a) taklif kiritgan shaxs (organ) haqidagi ma‘lumot;
- b) Kuzatuv kengashining muhokamasiga kiritiladigan masalalarning ta‘rifi;
- v) ushbu masalalarni qo‘yish sabablari;
- g) masalani ko‘rib chiqish uchun taklif etilayotgan muddatlar;
- d) taklif kiritgan shaxsning imzosi.

4.3. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi:

- a) Kuzatuv kengashining ishini tashkil etadi;
- b) Kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi;
- v) Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida raislik qiladi;

g) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida Kuzatuv kengashining Jamiyatni boshqarish bo'yicha faoliyati to'g'risida hisobot beradi;

d) Jamiyat nomidan Boshqaruv raisi va Jamiyat Boshqaruvi a'zolari bilan shartnoma imzolaydi;

e) Ustavda va ushbu Nizomda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

4.3. Jamiyatning Kuzatuv kengashi o'z raisini istalgan vaqtda Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

4.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini Kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

V. KUZATUV KENGASHINING MAJLISLARI VA QARORLAR QABUL QILISH TARTIBI

5.1. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisi Kuzatuv kengashining raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, Jamiyat Boshqaruvi a'zosining hamda Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) talabiga ko'ra chaqiriladi.

5.2. Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisini o'tkazish uchun kворum Jamiyat Ustaviga muvofiq Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolar sonining kamida yetmish besh foizini tashkil etadi.

5.3. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning yetmish besh foizidan kam bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari Aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat Boshqaruvi raisining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

5.4. Kuzatuv kengashi majlislari oqillik, samaradorlik va doimiylik tamoyillaridan kelib chiqqan holda, o'tkaziladi.

5.5. Kuzatuv kengashining majlisini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishda, Kuzatuv kengashining raisi quyidagilarni belgilashi lozim:

majlisni o'tkazish shakli, joyi, sanasi va vaqti;

majlisning kun tartibi;

ovoz berishga qo'yilgan masalalarning ta'rifi;

Kuzatuv kengashining a'zolariga majlisda taqdim etiladigan axborotlar(materiallar) ro'yxati.

Jamiyat Kuzatuv kengashining majlislari har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi, bunda majlisda majburiy tartibda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

Jamiyat ijro organining Jamiyatning biznes-rejasini bajarilishi to'g'risidagi, Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlari to'g'risidagi, Jamiyat tomonidan amalga oshirilgan xaridlar to'g'risidagi, Jamiyat asosiy (ustavdagi) faoliyati bilan bog'liq va bog'liq bo'lmagan sho'ba xo'jalik jamiyatlari hamda filiallari (vakolatxonalar) faoliyati to'g'risidagi, Jamiyat tomonidan tijorat maqsadlari va notijorat maqsadlarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlari;

Ichki audit xizmatining hisoboti;

Kuzatuv kengashi huzurida tashkil etilgan Strategiya va investitsiyalar qo‘mitasi, Audit qo‘mitasi, Tayinlovlar va mukofotlash qo‘mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi tomonidan ko‘rib chiqilgan masalalar bo‘yicha xulosa va tavsiyalari.

5.6. Kuzatuv kengashi a‘zolariga o‘z ichiga majlisning sanasi, vaqti va o‘tkazish joyini, taklif etilgan shaxslar ro‘yxatini va kun tartibidagi masalalarni kiritadigan xabar Kuzatuv kengashi a‘zolariga taqdim etiladigan axborotlar bilan yozma shaklda yoki boshqa qulay usul (shu jumladan, beriladigan va qabul qilinadigan xabarlarning bir-biriga mosligini ta‘minlovchi va ularni hujjat bilan tasdiqlovchi pochta, telegraf, telefon, elektron, faks yoki boshqa aloqa turi) bilan yuboriladi.

5.7. Kuzatuv kengashining qarori loyihasi va tijorat siridan iborat ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan maxfiy turdagi materiallar Kuzatuv kengashi muhokamasiga “maxfiy” belgisi bilan taqdim etiladi.

5.8. Kuzatuv kengashining navbatdan tashqari majlisini chaqirish to‘g‘risidagi talab Kuzatuv kengashi raisiga Kuzatuv kengashi majlisining taklif etilayotgan kun tartibini o‘z ichiga olgan tegishli yozma xabar yuborish vositasida qo‘yiladi.

Kuzatuv kengashining barcha a‘zolari Kuzatuv kengashining majlisini chaqirish to‘g‘risida majlis o‘tkazish ko‘zda tutilgan sanadan 5 (besh) ish kunidan kechiktirmasdan oldindan xabardor bo‘lishlari lozim.

Yig‘ilish kun tartibidagi masalalar bo‘yicha materiallar Kuzatuv kengashi a‘zolariga majlisni o‘tkazish sanasidan kamida 5 (besh) kalendar kuni oldin yuborilishi zarur. Kuzatuv kengashining majlisi ushbu talabni qo‘ygan shaxslar majlisga aniq taklif qilingan holda, o‘tkaziladi.

5.9. Kuzatuv kengashi majlisiga Jamiyat Boshqaruvi raisi va a‘zolari, ichki audit xizmati a‘zolari, Jamiyat auditori, majlisda ko‘riladigan masalalar bo‘yicha axborot va materiallarni tayyorlagan shaxslar, Jamiyat va uning sho‘ba korxonalari xodimlari, boshqa shaxslar taklif etilishi mumkin.

5.10. Majlisda raislik qiluvchi majlisni o‘tkazish tartibiga va reglamentiga rioya qilinishini, kun tartibidagi masalalarni ishchanlik va amaliy ruhda ko‘rib chiqilishini, ularni muhokama qilishda Kuzatuv kengashi a‘zolarining huquqlariga rioya etilishini ta‘minlaydi.

5.11. Har bir masala ko‘rib chiqilgandan so‘ng, raislik qiluvchi ovoz berish natijalarini ma‘lum qiladi va masala bo‘yicha qabul qilingan qarorni e‘lon qiladi.

Kuzatuv kengashining majlisida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a‘zosi bitta ovozga ega bo‘ladi.

Kuzatuv kengashining bir a‘zosi o‘z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a‘zosiga berishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kuzatuv kengashi a‘zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

5.12. Kuzatuv kengashining majlisida qarorlar majlisda hozir bo‘lganlarning ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

5.13. Quyidagi masalalar bo‘yicha qarorlar Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi:

a) jamiyatning ustav fondini qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish yo‘li bilan

ko'paytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida;

b) jamiyat tomonidan korporativ obligatsiyalarni chiqarish, shu jumladan, aksiyalarga ayirboshlanadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish to'g'risida;

v) balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish to'g'risida;

g) yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin;

d) jamiyat tomonidan affillangan shaxslar bilan bitim tuzish to'g'risida.

5.14. Kuzatuv kengashining majlisida bayonnoma yuritiladi. Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlis o'tkazilganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay tuziladi. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

a) majlis o'tkazilgan sana, vaqt va joy;

b) majlisni o'tkazish shakli (ochiq, sirtqi);

v) majlisda, shu jumladan masofadan turib ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari;

g) majlisda hozir bo'lgan shaxslar;

d) majlisning kun tartibi;

e) ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;

j) qabul qilingan qarorlar.

5.15 Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo'ladi.

5.16 Kuzatuv kengashi a'zolarida Kuzatuv kengashi majlisida hozir bo'lish imkoni bo'lmagan taqdirda, qarorlar sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin.

5.17. Sirdan ovoz berishni o'tkazish to'g'risidagi qaror Kuzatuv kengashi raisi tomonidan qabul qilinadi.

5.18. Quyidagi masalalar bo'yicha qarorlar Kuzatuv kengashining faqat ochiq shaklda o'tkaziladigan majlislarida qabul qilinadi:

a) Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

b) tarmoq xususiyatining o'ziga xosligi, raqobat muhiti tahlili, eksportga yo'naltirilganlik va tegishli soha, tarmoq va hududni rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan davlat dasturlaridan kelib chiqqan holda, Jamiyatni 5 yildan ortiq bo'lgan davr uchun uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini xorijiy tajribada muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan boshqaruv uslublari, shu jumladan, SWOT, GAP tahlil va boshqa yondashuvlar, maxsus dasturiy mahsulotlar va boshqalarni keng qo'llagan holda, ishlab chiqishni tashkil etish;

v) aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirish,

aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilgan hollar bundan mustasno;

g) qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda yirik bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish;

d) qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda affillangan shaxslar bilan bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilish.

5.19. Kuzatuv kengashi a'zosida Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida hozir bo'lish imkoni bo'lmagan va unda videokonferentsaloqa rejimida qatnashish uchun zarur texnik vositalar mavjud bo'lgan taqdirda, Kuzatuv kengashi a'zosi Kuzatuv kengashi majlisida masofadan turib qatnashishi mumkin.

5.20. Masofadan turib Kuzatuv kengashi majlisida ishtirok etayotgan Kuzatuv kengashi a'zosining ovoz berishi elektron byulletenni to'ldirish, uni elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash va elektron pochta orqali korporativ maslahatchi (ish yuritish uchun mas'ul Kuzatuv kengashi a'zosi)ga yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5.21. Masofadan turib majlisda qatnashgan Kuzatuv kengashi a'zosi ishtirokidagi bayonnomani rasmiylashtirishda, Kuzatuv kengashining majlisda qatnashgan a'zolari tomonidan imzolangan bayonnomaga Kuzatuv kengashi a'zosining ushbu Nizomda belgilangan tartibga asosan rasmiylashtirilgan byulleteni ilova qilinadi.

5.22. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyat ijroiya organiga ijro etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyat ijroiya organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

5.23. Korporativ maslahatchi (ish yuritish uchun mas'ul Kuzatuv kengashi a'zosi) Jamiyat Kuzatuv kengashining kotibi vazifasini bajaradi.

VI. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Kuzatuv kengashining a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab harakat qilishlari, o'z huquqlarini amalga oshirishlari va Jamiyatga nisbatan majburiyatlarini vijdonan va oqilona bajarishlari, unga ma'lum bo'lgan maxfiy axborotni va tijorat sirini tashkil etuvchi Jamiyat hujjatlarini oshkor etmasliklari zarur.

6.2. Kuzatuv kengashi a'zolari ijroiya organi, nazorat organlari va Jamiyat aksiyadorlari o'rtasida o'zaro ishonch, hurmat, hisobdorlik va nazorat tamoyillari asosidagi hamkorlikni ta'minlaydi.

6.3. Kuzatuv kengashining a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

a) kuzatuv kengashining majlislarida shaxsan ishtirok etish, majlisda muhokama etilayotgan har bir masala bo'yicha so'zga chiqish;

b) jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

v) kuzatuv kengashi majlisini chaqirishni talab qilish;

g) aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishlarini chaqirishni talab qilish;

d) jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni talab qilish;

e) kuzatuv kengashi tomonidan dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga tavsiyalar tayyorlashda takliflar kiritish;

j) jamiyat faoliyatining ustivor yo'nalishlarini belgilash, Jamiyat faoliyatini takomillashtirish, Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritish, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritish;

z) haq va (yoki) Kuzatuv kengashi a'zosi vazifasini bajarish bilan bog'liq xarajatlari uchun to'lov olish.

Kuzatuv kengashi a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

6.4. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat ijroiya organi rahbarining (boshkaruv raisi) va ijroiya organining a'zolarini vakolatlarini agar ular Jamiyat Ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki ularning harakatlari (harakatsizligi) tufayli jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, yoki Jamiyatning yillik biznes-rejasining tasdiqlangan ko'rsatkichlari bajarilmasa, muddatidan ilgari tugatishga, va shu tariqa jamiyat Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilangan shaxs uning vazifalarini aksiyadorlarning navbatdagi umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda vaqtincha bajarib turishga tayinlash huquqiga ega.

6.5. Jamiyat Kuzatuv kengashi Jamiyat Boshqaruv raisi va Boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani, ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda muddatidan ilgari tugatishga (bekor qilishga) haqli.

6.6. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi majburiyatlarga ega:

a) o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va halol bajarish;

b) har chorakda Jamiyat Boshqaruvi raisining Jamiyatning yillik biznes-rejasi bajarilishining borishi to'g'risidagi hisobotini eshitish;

v) jamiyat Boshqaruvi raisining Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan choralar to'g'risidagi hisobotini muntazam eshitish;

g) har chorakda ichki audit xizmatining hisobotini eshitish;

d) aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida ishtirok etish;

e) jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda, yozma bildirish yuborish orqali Jamiyatni o'z vaqtida xabardor etish;

j) jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosatiga rioya qilish;

z) jamiyatning monopoliyaga qarshi siyosatiga rioya qilish;

i) jamiyatning nazorat organlari, Ijroiya organi, jamiyat mansabdor shaxslari va xodimlari bilan to'g'ri xulq-atvori, korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurashni nazarda tutuvchi jamiyatning Korporativ axloq kodeksiga rioya qilish;

k) jamiyatning mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar, shuningdek, ularning manfaatlar to'qnashuvi haqidagi ma'lumotlarini oshkor qilishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish bo'yicha choralar ko'rish.

Kuzatuv kengashi a'zolari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

6.7. Kuzatuv kengashi a'zolari quyidagi axborotlarni Kuzatuv kengashi, jamiyat auditori e'tiboriga yetkazishlari shart:

a) mustaqil ravishda yoki o'z affillangan shaxsi bilan birgalikda yigirma yoki undan ko'p foiz ovoz beruvchi aksiyalari (ulushlari, paylari)ga egalik qiladigan yuridik shaxslar to'g'risida;

b) boshqaruv organlarida o'zlari lavozim egallab turgan yuridik shaxslar to'g'risida;

v) o'zlari manfaatdor shaxs deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan, ularga ma'lum tuzilayotgan yoki ko'zda tutilayotgan bitimlar to'g'risida.

6.8. Jamiyatning affillangan shaxsi hisoblanadigan Kuzatuv kengashining a'zosi Jamiyatning Kuzatuv kengashi mazkur bitim yuzasidan qaror qabul qilayotganda muhokamada ishtirok etishga haqli emas va ovoz berish huquqiga ega emas.

6.9. Jamiyatning Kuzatuv kengashi Qonunda belgilangan tartibda affillangan shaxs bilan kelgusida Jamiyat tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) ma'qullash haqida qaror qabul qilishga haqli.

6.10. Kuzatuv kengashi a'zolari shaxsiy manfaatlari uchun Kuzatuv kengashining u yoki bu qarorlarni qabul qilishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatish huquqiga ega emas.

6.11. Kuzatuv kengashi a'zolari Jamiyatning imkoniyatlari (mulkiy yoki nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlar, Jamiyatning faoliyati va rejalari to'g'risidagi axborot)dan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanish huquqiga ega emas.

6.12. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z mansab vazifalarini halol, shuningdek Jamiyat manfaatlari uchun ular eng yaxshi deb hisoblaydigan usul bilan amalga oshirishi shart.

VII. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING FIDUTSIAR MAJBURIYATLARI

7.1. Kuzatuv kengashi a'zolarining fidutsiar majburiyatlari:

vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, jamiyat va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanish;

o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslik.

Qonunchilikda, jamiyat ustavida va ichki hujjatlarida jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining boshqa fidutsiar majburiyatlari belgilanishi mumkin.

VIII. KUZATUV KENGASHINING QO'MITALARI

8.1. Kuzatuv kengashi asosli va samarali qarorlar qabul qilinishini ta'minlash maqsadida doimiy ish yurituvchi qo'mitalar tashkil etadi.

8.2. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalarni oldindan har taraflama ularning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha o'rganish va Kuzatuv kengashi uchun tavsiyalar tayyorlash qo'mitalarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

8.3. Kuzatuv kengashining qo'mitalari Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan qo'mitalar to'g'risidagi nizomlarga muvofiq shakllantiriladi va ish yuritadi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, Jamiyat Ustaviga, uning boshqaruv organlari qarorlariga amal qiladi.

8.4. Eng muhim masalalarni ko'rib chiqish va Kuzatuv kengashiga tavsiyalarni tayyorlash uchun quyidagi masalalar bo'yicha Kuzatuv kengashining qo'mitalari tashkil etiladi:

strategiya va investitsiyalar qo'mitasi;

audit bo'yicha qo'mita;

tayinlovlar va mukofotlash qo'mitasi;

korruptsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi.

Qo'mitalar tarkibi Kuzatuv kengashi a'zolaridan iborat bo'ladi. Zarur hollarda qo'mitalar ishiga Jamiyat ijro organlari a'zolari, Jamiyat xodimlari va tashqi ekspertlar jalb etilishi mumkin.

Kuzatuv kengashining Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi raisi uning mustaqil a'zolari orasidan tayinlanadi va mazkur qo'mitaga korxonaning transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlarini doimiy boshqarish vazifalari yuklatiladi.

Kuzatuv kengashi tomonidan boshqa masalalar bo'yicha qo'mitalar tashkil etilishi mumkin.

8.5. Jamiyat faoliyatining alohida yo'nalishlarini va loyihalarini o'rganish uchun Kuzatuv kengashining alohida komissiyalari (ishchi guruhleri) tashkil etilishi mumkin.

IX. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI

9.1. Kuzatuv kengashi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda Jamiyat manfaatlarini ko'zlab ish tutishlari va belgilangan tartibda javobgar bo'lishlari zarur.

9.2. Agar bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

9.3. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Kuzatuv kengashi a'zolari javobgar bo'lmaydi.

9.4. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

X. KUZATUV KENGASHI TOMONIDAN AXBOROTNI OSHKOR ETISH

10.1. Kuzatuv kengashi raisi yoki u tomonidan vakolat berilgan Kuzatuv kengashi a'zosi Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlarni rasmiy sharhlashga, shuningdek Jamiyat Kuzatuv kengashi majlislarida ko'rilgan masalalar bo'yicha, Jamiyatning tijorat va xizmat sirini hamda boshqa maxfiy axborotni tashkil etuvchi axborotlarni oshkor etish bo'yicha cheklovlarni hisobga olgan holda, Kuzatuv kengashining nuqtai nazarini (intervyu, ommaviy tadbirlar, telefon orqali uyushtirilgan

konferentsiyalar va hokazolarda) ifodalashga haqli.

10.2. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi majlislarida ko'rilgan masalalar va Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini oqillik va mas'uliyatni his etish tamoyillariga amal qilgan holda, shuningdek Jamiyatning tijorat va xizmat sirini hamda boshqa maxfiy axborotni tashkil etuvchi axborotlarni oshkor etish bo'yicha cheklovlarni hisobga olgan holda, ommaviy ifodalashga haqli.

10.3. Jamiyatning korporativ saytida Kuzatuv kengashining faoliyati to'g'risidagi axborot joylashtiriladi, shu jumladan:

- a) Kuzatuv kengashining tarkibi;
- b) «Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom», shuningdek unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar;
- v) Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiradigan masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar, Jamiyatning tijorat sirini va boshqa maxfiy axborotni tashkil etadigan masalalar bundan mustasno.
- g) Kuzatuv kengashining Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishiga hisobotlari;
- d) Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalar tarkibi va ularning faoliyati to'g'risidagi axborot;
- e) qonun hujjatlari talablariga muvofiq boshqa axborotlar.

XI. YAKUNIY QOIDALAR

11.1. Ushbu Nizom Jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Nizomni tasdiqlash bo'yicha qarori umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

11.2. Ushbu Nizomga qonun hujjatlari o'zgartirilganligi, Jamiyat Ustaviga, Jamiyatning ichki hujjatlariga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilganligi munosabati bilan va boshqa hollarda o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Ushbu Nizomga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga asosan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ushbu Nizomga o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalarni tasdiqlash to'g'risidagi qarori Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

11.3. Agar ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi hamda ushbu Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, bu bandlar orqali tartibga solinadigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi me'yorlari qo'llaniladi.

“Kvarts” AJ
Boshqaruv raisi v.v.b.



A.B.Xusanov